

MAKTAB O‘QUVCHILARI TOMONIDAN SODIR ETILGAN JINOYATLAR
TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TASNIFI

A.M. Shermuhammedov

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi.*

Annotatsiya: *Mazkur dissertatsiya maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar va ularning profilaktikasini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining global va milliy miqyosda ortib borayotganligi, uning ijtimoiy xavflilik darajasi hamda jamiyat barqarorligiga salbiy ta’siri bilan izohlanadi. Tadqiqotning maqsadi maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik xususiyatlarini kompleks tahlil qilish hamda ularning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ishda analiz va sintez, statistik va qiyosiy tahlil, sotsiologik so‘rov, tizimli yondashuv kabi metodlardan foydalanilgan. Tadqiqot natijasida maktab o‘quvchilari jinoyatchiligining determinantlari, jinoyatchi shaxsning kriminologik portreti hamda hududiy xususiyatlari aniqlangan. Shuningdek, profilaktika tizimini takomillashtirish bo‘yicha huquqiy va tashkiliy mexanizmlar ishlab chiqilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi maktab o‘quvchilari jinoyatchiligini mustaqil kriminologik hodisa sifatida kompleks o‘rganish va manzilli profilaktika choralari taklif etishda namoyon bo‘ladi. Amaliy ahamiyati esa qonunchilikni takomillashtirish va profilaktika amaliyotini samaradorligini oshirish imkoniyatida ifodalanadi.*

Kalit so‘zlar: *maktab o‘quvchilari jinoyatchiligi; voyaga yetmaganlar; jinoyat profilaktikasi; kriminologik portret; determinantlar; huquqbuzarliklar profilaktikasi; yuvenal kriminologiya; jamoat xavfsizligi.*

ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И КЛАССИФИКАЦИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ,
СОВЕРШАЕМЫХ УЧАЩИМИСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

А.М. Шермухамедов

*самостоятельный соискатель
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан*

Аннотация: *Диссертационное исследование посвящено совершенствованию профилактики преступлений, совершаемых учащимися общеобразовательных школ. Актуальность темы обусловлена ростом преступности среди несовершеннолетних как на глобальном, так и на национальном уровне, её социальной опасностью и негативным влиянием на общественную стабильность. Цель исследования заключается в комплексном криминологическом анализе преступлений, совершаемых школьниками, а также в разработке научно обоснованных предложений по*

совершенствованию механизмов их предупреждения. В работе применены методы анализа и синтеза, статистический и сравнительно-правовой анализ, социологические опросы и системный подход. В результате исследования выявлены детерминанты школьной преступности, сформирован криминологический портрет личности несовершеннолетнего правонарушителя, определены региональные особенности преступности. Разработаны предложения по совершенствованию правовых и организационных механизмов профилактики. Научная новизна заключается в комплексном рассмотрении преступности учащихся как самостоятельного криминологического феномена и разработке адресных профилактических мер. Практическая значимость определяется возможностью использования результатов в правоприменительной деятельности и совершенствовании законодательства.

Ключевые слова: *преступность несовершеннолетних; школьники; профилактика преступлений; криминологический портрет; детерминанты преступности; ювенальная криминология; правоприменительная практика; общественная безопасность.*

CONCEPT, ESSENCE AND CLASSIFICATION OF CRIMES COMMITTED BY SECONDARY SCHOOL STUDENTS

A.M. Shermukhamedov

Independent Researcher

*University of Public Security
of the Republic of Uzbekistan*

Abstract: *This dissertation is devoted to improving the prevention of crimes committed by secondary school students. The relevance of the study is обусловлена the increasing level of juvenile delinquency at both global and national levels, its social danger, and its negative impact on social stability and public security. The purpose of the research is to conduct a comprehensive criminological analysis of crimes committed by school students and to develop scientifically grounded proposals aimed at improving preventive mechanisms. The study employs methods of analysis and synthesis, statistical and comparative legal analysis, sociological surveys, and a systemic approach. The findings identify key determinants of school-related juvenile delinquency, develop a criminological profile of the minor offender, and determine regional characteristics of such crimes. The research substantiates proposals for improving legal and organizational mechanisms of prevention. The scientific novelty lies in the comprehensive consideration of school students' delinquency as an independent criminological phenomenon and in the development of targeted preventive measures. The practical significance of the study is reflected in its applicability to legislative improvement and law enforcement practice.*

Keywords: *juvenile delinquency; school students; crime prevention; criminological profile; determinants of crime; juvenile criminology; law enforcement practice; public security.*

Maktab o‘quvchilari o‘rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar o‘zining mohiyati, sodir etilish vaqti, motivi va boshqa belgilariga ko‘ra katta yoshdagilar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklardan tubdan farq qiladi. Xususan, muayyan yosh, ruhiy va boshqa ijobiy yoki salbiy xususiyatdagi guruh huquqining bunday o‘ziga xos xususiyatlari chetga chiqish bo‘lmay, balki voyaga yetmaganlar uchun xos bo‘lgan xulqiy me‘yor hisoblanadi[1].

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatini qiynayotgan global muammolar qatorida maktab o‘quvchilari orasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning sodir bo‘lishi juda ko‘p tilga olinmoqda. So‘nggi statistik ma‘lumotlarga qaraganda, yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etish 2024 yil mobaynida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 19 foizga, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyat sodir etish esa 23 foizga kamaygan[2]. O‘zbekiston Respublikasi IIV ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda voyaga yetmaganlar tomonidan 3 421 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2021 yilga nisbatan 51 foizga oshgan[3].

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har yili 200 000 dan ortiq qotillik hodisasi 10-29 yoshdagi yoshlar orasida sodir etiladi[4]. Bu raqam global miqyosda maktab o‘quvchilari va yoshlar jinoyatchiligi muammosining naqadar jiddiy ekanligini ko‘rsatadi. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov bo‘yicha komissiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilik darajasining 10-15 foizini tashkil qiladi[5].

O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilik nafaqat mamlakatning ijtimoiy hayotida jiddiy muammo, balki kelajakda O‘zbekistonning xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga xavf bo‘lib shakllanishi mumkin. Oxirgi yillarda yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlarning ko‘payishi nafaqat huquqni muhofaza qilish organlarini, balki butun jamiyatni tashvishga solmoqda. Maktab o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilikning ko‘payishi ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu yosh avlodning jinoiy faoliyatiga olib keladigan sharoitlar va omillarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish va profilaktika choralarini takomillashtirish, huquqiy va pedagogik yondashuvlarni ilmiy asosda ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir. Ushbu masala O‘zbekistondagi ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlik uchun ham strategik ahamiyatga ega bo‘lib, unga davlat va jamiyat tomonidan yetarli e‘tibor qaratilmog‘i zarur.

Bu holatning oldini olish uchun jamiyatimizda yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda o‘quvchilarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Milliy gvardiya, Ichki ishlar organlari, "Mahalla" jamg‘armasi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamkorligida, sababsiz ravishda darslarga qatnashmaydigan o‘quvchilarni aniqlash va ularni ta‘lim jarayoniga qaytarish maqsadida har oy davomida “Davomat” tadbirlari tashkil

etilgan. Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish, xususan, maktab o‘quvchilari o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bundan tashqari, har chorakda tungi vaqtlarda "Internet-kafe" va ko‘ngilochar maskanlarda bo‘lib turgan o‘quvchilarni aniqlash va ularni ta‘limga qaytarish bo‘yicha “O‘quvchi” reydlari o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur tadbirlar o‘quvchilarning jinoyatchilikdan xoli bo‘lishi va ta‘limdagi ishtirokiga ko‘maklashadi.

Ta‘kidlash joizki, kriminologiyada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilik bo‘yicha yetarli darajada ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan[6]. Voyaga yetmaganlar, xususan, maktab o‘quvchilari jinoyatchiligi kriminologiya fanining asosiy tadqiqot ob‘ekti bo‘lgan. Xususan, olimlar bugungi kunda voyaga yetmaganlar, ayniqsa, qizlar orasida jinoyatga moyillik agressiv tus olganligini[6] ta‘kidlashmoqda.

A.I.Osonsevnining fikricha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi jamiyatda yuz berayotgan salbiy jarayonlarning natijasi bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy farovonlik darajasining indikatori sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ikki o‘zaro bog‘liq hodisaning rivojlanishi faqat inqiroz holatiga emas, balki jamiyatning o‘ziga tahdid soluvchi xavfga ham olib kelishi mumkin[7].

Umumta‘lim muassasalari o‘quvchilari (6-18 yoshda) demografik, ijtimoiy-psixologik va jamiyatdagi bir guruh aholini tashkil etib, ular yosh va jamiyat munosabatlarining xususiyati bilan belgilanadigan intensiv ijtimoiy, psixologik va fiziologik rivojlanish bilan tavsiflanadi[8]. Shu bois, bu guruhning ta‘lim-tarbiyasiga jamiyat tomonidan alohida e‘tibor qaratilishi zarur. O‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik holati jamiyatning turli omillari, jumladan, oiladagi, maktabdagi, atrofidagi-muhit ta‘siri ostida shakllanadi. Ayniqsa, ularning ruhiy rivojlanishi uchun maktabdagi o‘qituvchilar, hamkasblari va ota-onalar bilan bo‘lgan munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish davlatning o‘ziga xos ijtimoiy faoliyati turi hisoblanadi. U ogohlantirish faoliyatning usullari, shakllari va vositalarining tizimini qamrab olib, muhim komponent sifatida ijtimoiy faoliyatning kengroq sohasi – jinoyatlarning oldini olish sohasiga kiradi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari va ularning ijtimoiylashuv jarayoniga ta‘siri yosh avlodning jinoiy xatti-harakatlarini shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda maktablardagi tarbiya va ta‘lim tizimlari, oilaviy tarbiyaning zaifligi[9], shuningdek, yoshlarning madaniy va ma‘naviy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi muammolar, barcha ijtimoiylashuv modellarining muvaffaqiyatsizligiga olib kelmoqda. Bu esa o‘quvchilar o‘rtasida jinoiy xatti-harakatlarning o‘shishiga sabab bo‘lmoqda.

Qayd etish joizki, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan aniq yo‘llar, shakllar va usullar takomillashib borayotganligi sir emas. Davlat tomonidan qabul qilingan qonunchilikdagi o‘zgarishlar va amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning samaradorligi oshirilishiga qaratilgan. Shunga qaramasdan, maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi huquqbuzarliklarning profilaktikasi muammolari hanuzgacha ko‘plab hududlarda yetarli darajada hal qilinmayotgani ma‘lum. Ayniqsa, umumta‘lim muassasalari o‘quvchilari

orasida jinoyatchilik darajasining oshib borayotganligi muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi jinoyatchilik hozirgi vaqtda jamiyat uchun jiddiy xavotir manbai bo‘lmoqda. O‘smirlar jinoyatchiligi dinamikasida noxush tendensiyalar kuchaymoqda – uning yosharishi va feminizatsiyasi, guruhlashganlik xususiyatining kuchayishi, o‘spirinlar o‘rtasida giyohvandlik va toksikomaniyaning ortishi, nisbatan farovon toifalarning kriminalizatsiyasi kuzatilmoqda. Maktab muhiti ham kriminogen hududga aylandi. Rasmiy statistika va kriminologik tadqiqotlar uzoq vaqt mobaynida respublikaning butun hududida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilikning intensiv o‘sish tendensiyasini qayd etmoqda. Xususan, 2021 yil 12 oyida 2 595 nafar voyaga yetmaganlar tomonidan 2 262 ta jinoyatlar sodir etilgan. Ma’lumot uchun: 2020 yilga nisbatan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 1 128 taga yoki 99 foizga (1 134/2 262), jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar 1 019 nafarga yoki 103 foizga (1 276/2 595) oshgan.

N.F.Kuznesova va V.V.Luneevning ta’kidlashicha, profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirishda kriminologik tahlil va prognozda voyaga yetmagan aholi tarkibida maktab o‘quvchilari, boshqa ta’lim muassasalari o‘quvchilari, ishlayotganlar, vaqtincha ishsizlar va o‘qimaydigan o‘smirlarni ajratish muhim ahamiyatga ega[10].

Jinoyatchilikning oldini olish uchun ishsiz yoshlar va o‘qimaydigan o‘smirlarga alohida e’tibor qaratish kerak, chunki ular o‘ziga xos ijtimoiy xavf tug‘diradi. Shu bilan birga, maktab va ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ularning ta’lim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash ham muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy adabiyotlarda «voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi», «o‘spirinlar va yoshlar jinoyatchiligi», «yuvenal jinoyatchilik», «maktab o‘quvchilari jinoyatchiligi» kabi atamalar uchrab turadi. Aksariyat mualliflar «maktab o‘quvchilari jinoyatchiligi» tushunchasini belgilashda milliy qonunchilikka asoslanishni lozim deb hisoblashadi.

BMT tomonidan 1985 yil 29 noyabrda qabul qilingan «Kichik yoshdagi shaxslarga nisbatan adolatni ta’minlash to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari)»ga ko‘ra, «Maktab o‘quvchilari jinoyatchiligi bu – amaldagi huquqiy tizim doirasida huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortiladigan, ammo kattalarga nisbatan qo‘llaniladigan javobgarlik shaklidan farq qiladigan shaklda javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxsdir»[11]. BMTning Xalqaro standartiga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining emotsional, ma’naviy va intellektual kamolotini inobatga olgan holda jinoiy javbgarlik yoshining quyi chegarasi juda past darajada belgilanmasligi lozim[11].

O‘zbekiston qonunchiligida ham yoshga bog‘liq turli huquqiy normalar mavjud bo‘lib, ularning tadbiq etilishi ko‘p jihatdan muayyan huquqiy munosabatlar va tarmoqlariga bog‘liq. Bu yoshga qarab belgilangan huquqiy mas’uliyat darajasidan tashqari, yoshlar qaysi huquqiy munosabatlarga kirishishi va ular qaysi qonun hujjatlarida nazarda tutilganiga bog‘liq bo‘ladi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko‘ra (101-modda, 2-qism), 7—14 yoshdagi bolalar muayyan hollarda mustaqil ravishda mol-mulk bilan bog‘liq

bitimlar tuzish huquqiga ega. Biroq, mehnat shartnomasini faqat 16 yoshga to‘lgan yoshlar tuzishi mumkin (mehnat kodeksiga muvofiq maxsus sharoitlarda — 15 yoshdan, qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan hollarda — 14 yoshdan). Jinoyat kodeksida esa jinoiy javobgarlikning uch yoshi belgilangan: 14, 16 va 18 yosh.

Angliya va Uels qonunchiligiga ko‘ra, voyaga yetmaganar deb 10 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tan olinadi. Shu bilan birga, "voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi" tushunchasi 10 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar va 18 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni (shunday atalgan "yosh kattalar") qamrab oladi[12].

Biz tadqiq etayotgan mavzu doirasidagi maktab o‘quvchilarining yosh chegarasi qonunchilikka ko‘ra 7-18 yoshni (1-11 sinf o‘quvchilari) qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, kriminologik tadqiq ob’ekti sifatida voyaga yetmaganlarning yosh chegarasini 3 ta darajaga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq: 14-15, 15-16 va 17-18 yosh.

Umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasidagi jinoyatchilikni mustaqil kriminologik tadqiq qilish zarurati bir qator muhim omillar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, bu ijtimoiy guruhga mansub shaxslar jinoyatchiligiga xos xususiyatlar, uning holati, tuzilishi va dinamikasi o‘zining spesifik xususiyatlariga ega. Ushbu jinoyatlar ko‘pincha o‘smirlarning ijtimoiy, psixologik va fiziologik rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning maxsus yoshga xos muammolar va ijtimoiy munosabatlar ichidagi holatini hisobga olishni talab qiladi. Shuningdek, mazkur ijtimoiy guruhda jinoyatlarning sodir etilishi ko‘pincha jamiyatdagi o‘zgarishlarga nisbatan tezroq va o‘ziga xos tarzda reaksiya qiladi.

Ikkinchidan, o‘smirlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning tuzilishi va motivatsiyasiga xos xususiyatlar alohida e’tiborga loyiqdir. Ular asosan tarbiya, oilaviy muhit va ijtimoiy muhitning ta’siri ostida shakllanadi. Shu bois, bu yosh guruhidagi shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari va motivlari ularning tarbiyasidagi o‘ziga xosliklar, ijtimoiy guruhlar ichidagi aloqalar va shaxsiy psixologik xususiyatlar bilan bevosita bog‘liq.

Uchinchidan, o‘sib kelayotgan avlodning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, shu jumladan, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifalari jamiyat va davlat uchun katta ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, bolalar va o‘smirlarni himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatini shakllantirish muhimdir, bu esa davlat organlari va jamiyatning butunlay faoliyat yo‘nalishi sifatida qaraladi. Davlat siyosati jinoyatchilikning oldini olish va maktab o‘quvchilarini huquqiy himoya qilishda strategik yondoshuvni talab qiladi.

To‘rtinchidan, umumta’lim muassasalari o‘quvchilari jinoyatchiligi holati, tendensiyalari va genezisini, jinoyatchi shaxsini o‘rganish ahamiyatlidir. Bu yosh guruhidagi shaxslar jinoyatchilikka qanday omili ta’sir ko‘rsatishi, ularning shaxsiy va ijtimoiy psixologik xususiyatlari qanday roli borligini aniqlash va shu asosda samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish zarur. Bu kabi tadqiqotlar nafaqat jinoyatchilikning oldini olish, balki ushbu yoshdagi shaxslarning ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun ham muhimdir.

Mazkur muammoni chuqurroq tahlil qilish va uni samarali hal qilish uchun ilmiy tahlil va izlanishlarni davom ettirish, har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish

bilan profilaktika ishlarning turli shakllarini tatbiq qilish lozim. Bu, o‘z navbatida, jinoyatchilik darajasini kamaytirishga, o‘quvchi yoshlar orasida ijobiy ma’naviy muhitni mustahkamlashga va kelgusida jamiyat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Maktab o‘quvchilari orasida jinoyatchilik muammosi, umumiy ta’lim va tarbiya tizimidagi muammolar, ta’limdan tashqari qolgan maktab yoshidagi shaxslar muammosi bilan kuchaymoqda. Ta’lim tizimida tarbiyaning ahamiyati oshganiga qaramay, ko‘p hollarda ta’lim muassasalari "tarbiyasi og‘ir" o‘quvchilardan qutulishga harakat qilmoqda. "Bizning mamlakatimizda oxirgi yillarda ta’lim dasturlarini amalga oshirishda bunday yengilfikrlik va mas’uliyatsizlik hech qachon bo‘lmagan, chunki o‘n minglab bolalar va o‘smirlar maktabdan tashqari qolib ketib, ko‘pincha jinoiy elementlar qo‘liga tushib qolmoqda"[13]. Natijada ularda shafqatsizlikka barqaror qarashlar shakllanadi, yetimlik hissi paydo bo‘ladi, ko‘plarida o‘zining ijobiy imkoniyatlariga ishonchni susaytiruvchi intellektual salohiyat pastligi kuzatiladi, bu esa ko‘pincha yoki hatto muqarrar ravishda turli asotsial xulq-atvor shakllarida ifodalanadi.

Bizningcha, maktab o‘quvchilarining huquqbuzarliklar holati, tuzilishi va dinamikasini o‘rganishda quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar statistik hisoboti, bolalar masalalari bo‘yicha komissiyasi materiallari, maktab o‘quvchilarni ijtimoiy-huquqiy reabilitatsiya markazlari, maktab o‘quvchilari huquqbuzarlarni tarbiyalash bo‘yicha maxsus maktablar tajribasini tahlil qilish;

- maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlarning asl ma’lumotlari va umumiy qonuniyatlarini qo‘llash va ular orqali umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilik xususiyatlarini kuzatish;

- maktab o‘quvchilari, professional o‘quv yurtlari, litseylar o‘quvchilari; norasmiy yoshlar guruhlari a’zolari; o‘qituvchilar, pedagoglar, tarbiyachilar, iiv va prokuratura tuzilmalari xodimlari, ijtimoiy xizmatlar, ota-onalar yoki ularni almashtiruvchi shaxslar o‘rtasida anketa so‘rovlari va intervyyularni tashkil etish va natijalarini tahlil qilish;

- umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilik holati va unga qarshi kurash choralari bo‘yicha jamoatchilik fikrini kuzatish va o‘rganish; umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilik holatining o‘zgarishi bo‘yicha prognozlar tuzish;

- umumta’lim muassasalarida tarbiyaviy va mehnat faoliyatini tashkil etishning yangi shakllari orqali o‘quvchilarda huquqiy ong va axloqiy tarbiyani shakllantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish;

- umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilikni profilaktika qilish bo‘yicha kompleks va maqsadli dasturlarni ishlab chiqish;

- umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoiy ko‘rsatkichlar va tendensiyalarni aniqlash va tahlil qilish;

- mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga hamroh bo‘lgan kriminogen ijtimoiy jarayonlarning umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilikning miqyosi, tuzilishi va dinamikasiga ta’sirini ko‘rib chiqish;

- maktab yoshidagi shaxslarning hayot va tarbiya sharoitlarini o‘rganish, ularning asotsial shaxsga aylanishiga sabab bo‘lgan omillarni tahlil qilish;
- umumta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning profilaktikasi uchun ijtimoiy-pedagogik sharoitlar va psixologik muhitni yaxshilashning eng samarali usullarini kriminologik jihatdan aniqlash;
- ta’lim muassasalarining tarbiyaviy-profilaktik ishlarning holatini o‘rganish va o‘quvchilarning jinoyat sodir etishga qadar va jinoiy xulq-atvori profilaktikasini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish;
- o‘quvchilarning jinoiy xulq-atvorini oldini olish choralar tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. <https://referat.uz/drugie/tekst-lekciy/13874-13874.html>
2. Файзуллаев Д.О. Ёшлар орасида жиноятчиликка қарши курашиш давлатимизнинг долзарб вазифасидир! // Central Asian Journal of Multidisciplinary research and management studies. Volume 1, Issue 1, February 2024. Page 117-123
3. Ўзбекистон Республикаси ИИБ ахборот таҳлилий маълумотлари.
4. World Health Organization. "Youth violence". 2020 - <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/youth-violence>
5. United Nations Office on Drugs and Crime. "Global Study on Homicide". 2019 - <https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/global-study-on-homicide.html>
6. Kriminologiya. Darslik. M.X. Rustambayev, Q.R. Abdurasulova, G.B.Nurmuhammedova. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, – 2024-y. – 424 bet.
7. Осынцев А.И. Криминологическое обеспечение профилактики преступности несовершеннолетних // Дис.канд.юрид.наук. – Краснодар 2000. С.194. <https://www.dissercat.com/content/kriminologicheskoe-obespechenie-profilaktiki-prestupnosti-nesovershennoletnikh>
8. Зиядова Д.З. Теоретические и прикладные проблемы преступности среди учащихся общеобразовательных учреждений: региональный аспект. // Дис.док.юрид.наук. – Москва – 2006. С.464
9. Назаров Б. "Жиноятчиликка қарши курашда ижтимоийлашув институтининг роли". Тошкент: Фан. – 2023.
10. Криминология: Учебник / Под ред. Н.Ф. Кузнецовой, В.В. Лунеева. - М., 2004. - С.260.
11. Минимальные стандартные правила Организации Объединенных Наций, касающиеся отправления правосудия в отношении несовершеннолетних (Пекинские правила) — Конвенции и соглашения — Декларации, конвенции, соглашения и другие правовые материалы (un.org)
12. Ведерникова О.Н. Теория и практика борьбы с преступностью в Великобритании. М., 2001. С. 209.
13. Алексеев А.И., Герасимов С.И., Сухарев А.Я. Криминологическая профилактика: теория, опыт, проблемы. Монография. - М., 2001. - С. 10.